

Xalqaro Nordik universiteti rektori Sh.I.Mustafakulov, “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” dekanati xodimlari va universitet talaba-yoshlari uchrashuvi

Alimuxametov Usmonjon Azimjonovich

Xalqaro Nordik Universiteti

Tyutor tarbiyachi

u.alimuxametov@nordicuniversity.org

+998950777050

BAYONNOMASI

13.09.2024 yil

№____

Toshkent sh.

Qatnashdilar:

Sh. I. Mustafakulov – Xalqaro Nordik universiteti
rektori

Z. Uralbayev – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekani muovini

Tyutor tarbiyachi pedagoglar jamoasi;
va Xalqaro Nordik universitetining talabalari;

Kun tartibidagi masalalar:

1. Mazkur yilda talaba-yoshlar uchun amalga oshirilgan ishlar, yaratilgan imkoniyatlar, oldingi rejalar va maqsadlarga to‘xtalib o‘tish.
2. Universitet rahbariyati va talaba-yoshlar o‘rtasida samimiy muloqot
3. Ilm toliblari tomonidan ularni qiynayotgan ayrim muammolar, universitet rivojiga qaratilgan taklif va tashabbuslar bildirish

Bugun Xalqaro Nordik universiteti rektori universitet talaba yoshlari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuv ochiq, samimiy ruhda tashkil etildi. Unda universitet rektori bilan birgalikda “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” dekani muovini Z. Uralbayev , tyutor tarbiyachi-pedagoglar jamoasi hamda universitet yoshlar ittifoqi BT yetakchisi Y. Rahimberdiyeva qatnashib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha savollar va murojaatlarga javob berdilar.

Universitet rektori Sherzod Mustafakulov hozirgi o‘quv jarayoni haqida qisqacha axborot berdi. Shundan so‘ng uchrashuvning asosiy qismi boshlandi. Unda talabalar turli yo‘nalishlar va sohalar bo‘yicha muammolarni rahbarlar e‘tiboriga havola etdilar, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, o‘quv jarayonini yaxshilash bo‘yicha takliflarini o‘rtaga tashladilar.

Uchrashuvda bir qator muammolar o'z yechimini ham topdi, ko'plarini hal etish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Masalan, kutubxonada mavjud o'quv adabiyotlarining



elektron shaklini yuklab olish imkoniyatini yaratish, talaba yoshlarning darsdan tashqari vaqtlarini unumli tashkil qilish maqsadida universitetda klublar faoliyatini yo'lga qo'yish, Kompyuter injiniringi yo'nalishi talabalari olayotgan bilimlarini mustahkamlashi va o'z ustilarida doimiy ishlashi uchun zamonaviy kompyuterlar laboratoriyasi tashkil etish kabi ko'plab takliflar to'liq qabul qilinib, ertangi ish

kunidan boshlab ularni amalga oshirish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatma berildi.



Shuningdek, universitet yoshlar yetakchisi yoshlar muammolarini doimiy o'rganishi, muammolar yuzasidan murojaat qilishlari mumkin ekanini bildirdi.

Uchrashuv yakunida Sherzod Mustafakulov barcha talabalarni yangi 2024-2025-o'quv yili boshlanishi bilan samimiy qutlab, ularning o'qish va sportdagi faoliyatiga ulkan zafarlar tilab qoldi, universitetda an'anaga aylangan rektor va talabalar uchrashuvi doimiy tashkil etilishi, agar biror talabaning shaxsiy murojaati bo'lsa, qabul qilish uchun eshigi ochiq ekanini bildirdi. Shuningdek, dekanatning doimiy asosda ishlovchi murojaatlar uchun boti @XNUDekanat_bot ishlab turgani, murojaatlar bo'lsa, bot orqali ham yuborish mumkinligini aytib o'tildi.

FAKULTET QAROR QILADI:

1. Tadbirda davomida universitet rektori Sh. Mustafakulov va fakultet dekani muovini Z. Uralbayevning axboroti va ta'kidlab o'tilgan fikrlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tyutor tarbiyachi pedagoglar jamoasiga talabalarni qiynayotgan mavzularni doimiy o'rganishi va ular bo'yicha rahbariyatga doimiy axborot berishi vazifasi yuklansin.

3. Ma'sul xodimlarga talabalar tomonidan berilgan takliflarni joyida o'rganib chiqish va ularni hayotga tadbiq qilish vazifalari yuklansin